

ADABIYOTSHUNOSLIKDA “MUALLIF OBRAZI” HAMDA “MUALLIF O’LIMI” KONSEPSIYALARINING ILMIY TALQINLARI

Sulaymanova Nafisaxon Yashin qizi

*Angren universiteti “Til va uni
o’qitish” kafedrasi o’qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlardagi muallif obrazi, shuningdek R. Bartning “muallif o’limi” konsepsiyasi, unga o’zbek va jahon olimlarining munosabati, bu borada yaratilgan tadqiqotlar haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: “muallif obrazi”, “muallif o’limi”, muallif qiyofasi, syujet, psixologizm, kompozitsiya, individual uslub.

Annotation. This article provides detailed information about the image of the author in works of art, as well as the concept of the author’s death of R. Bart, the attitude of uzbek and world scholars to it, the research created in this regard.

Keywords: author image, death of the author, the image of the author, plot, psychology, composition, individual style.

Adabiyotshunoslikda muallif pozitsiyasini ifoda etishning turli xil usullari mavjud:

1. Muallifning bevosita bayoni. Muallif to’g’ridan to’g’ri baholash va yuz berayotgan voqealarga o’z nuqtai nazarini bildirishi mumkin, masalan, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” asarida tarixiy jarayon, shaxsning tarixdagi roli, tarixiy qonunlarning xatti-harakatlari va boshqalarga oid fikrlarini keltirgan. Tolstoyning kundaliklarida yozilishicha, muallifning o’zi bu asaridan ko’ngli to’lmagan ekan.
2. Asar nomi.
3. Sarlavha o’quvchini asar dunyosi bilan tanishtiradi, matnning asosiy mavzusini ifoda etadi, uning eng muhim voqealar qatorini belgilaydi yoki uning asosiy ziddiyatini ko’rsatadi.

4. Sarlavha asarning bosh qahramonini nomlashi mumkin (“Anna Karenina”, “Hojimurod”, “Yevgeniy Onegin”). Bu maqom mavqeini egallagan vas hu bilan o’quvchining e’tiborini personajga qaratgan, ayniqsa asarning badiiy olamida ajralib turadigan holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi.
5. Matn sarlavhasida harakatning vaqti va joyi ko’rsatilishi mumkin (“To’pdan keyin”, “Darvoza”).
6. Sarlavha tasvirlangan vaziyatlar, syujetning rivojlanishi haqida muallifning qarashlarini ifoda etadi (“Zamonamiz qahramoni”, “Jinoyat va jazo”).
7. Sarlavha bahoni o’z ichiga olishi mumkin (Mayakovskiy “Yaxshi”).
8. Alohida jumlalarda, bir qator dalillar orqali.
9. Lirik chekinishlar, mulohazalar. Ularning asosiy vazifasi tasvir doirasini kengaytirish, muallifga syujet bilan bevosita bog’liq bo’lmagan turli xil hayotiy hodisalar to’g’risida o’z fikrlari va his-tuyg’ularini ifoda etish imkonini berishdir.
10. Oxirgi xatboshida. Masalan, Tolstoy “Hojimurod” qissasining oxirgi xatboshisini quyidagicha yakunlaydi: “haydalgan dala o’rtasidagi yanchilgan tikanak menga ana shu o’limni eslatdi”. Bunda muallifning bosh qahramonning fojiali yakun topgan taqdiriga bildirgan shaxsiy mulohazasi obrazli ifodalangan.
11. Epigrafdan.
12. Fe’l-atvor ko’rinishi. Masalan, “Urush va tinchlik” dagi Xelenaning portreti muallifning ushbu xarakterga nisbatan salbiy munosabatini bildiradi. Natasha va Malika Maryaning portretlari esa ijobiy emotsiya beradi.
13. Nutq xususiyati orqali. Lujinning klerikal nutqi muallifda yoqimsiz his-tuyg’ularni uyg’otadi, Sonechka Marmeladovanning ta’sirchan va chalkash nutqi Dostoyevskiyga xosdir.
14. Qahramonlar ismlari orqali.
15. Qahramonlarning fe’l-atvor xususiyatlari orqali.
16. Qahramonlarning fikrlari va his-tuyg’ularini ochish orqali – psixologizm. M. Lermontov, S. Turgenev, F. Dostoyevskiy, L. Tolstoy rus adabiyotida mohir yozuvchi-psixologlar edi.

17. Tabiat tasviri orqali.
18. Asar kompozitsiyasi orqali.

Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi. Obrazga bevosita yozuvchining o'zi tomonidan berilgan ta'rif "muallif xarakteristikasi" deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe'l-atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Odatda muallif xarakteristikasi asarning boshlanish qismlarida yoxud konkret obraz asarga singib kelgan o'rinlarda beriladi. Muallif xarakteristikasi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlarini, gap-so'zlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

V. E. Xalizevning "Adabiyot nazariyasi" darsligida "muallif" so'ziga "lot. Autor – harakat mavzusi, asoschisi, tashkilotchisi, o'qituvchisi va ayniqsa, asar yaratuvchisi", deya ta'rif beriladi. Muallif, birinchidan, ma'lum bir taqdir, biografiya va individual xususiyatlarga ega shaxs sifatida san'at asarining yaratuvchisidir. V. E. Xalizev ijodkorning asardagi mavqeini "muallif qiyofasi" deb belgilaydi.

Muallif asar yaratar ekan, unda ma'lum bir g'oyani aks ettiradi. "Asarlardagi badiiy g'oya muayyan hayotiy voqealar muallifning yo'naltirilgan talqini va bahosini, shuningdek falsafiy qarashini yaxlit holda o'z ichiga oladi, bu muallifning ma'naviy dunyosi ochib berilishi bilan bog'liq", deydi olim.

Ushbu tushuncha dastlab **V. Vinogradov** tomonidan atama sifatida ishlatilgan. U tilshunos sifatida tilning individual, o'ziga xos xususiyati, yozuvchi va asar tili bilan shug'ullangan holda yozuvchi shaxsiyatini dastlab "lisoniy ong", keyinchalik "individual uslub", va nihoyat "muallif obrazi" sifatida belgiladi.

Mualliflik muammosi rivojlanishining boshlanishidagi yana bir shaxs **M. Baxtin** bo'lib, uning qarashlari V. Vinogradov konsepsiyasidan farq qiladi. M. Baxtin muallif obrazini asardan estetik yaxlitlik sifatida ajratib oladi va uni "muallif qiyofasi" deb o'rganadi. Muallif obraz sifatida o'rganilar ekan, u qahramonlar bilan bir xil darajada

turadi. “Ammo, - deydi M. Baxtin, - asarda muallif qahramondan tubdan farq qiladi. Muallif va qahramonning mos bo’lishi sifatlarda qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi”.

Yozuvchining turli hayotiy faktlarga, odamlarga, falsafiy va axloqiy tamoyillarga, hayotiy ijtimoiy tuzumlarga bergan baholari, avvalambor, majoziy xarakterdadir. Muallif pozitsiyasi to’g’ridan to’g’ri, oshkora, birma-bir, baho shaklida yoki bilvosita ifoda etilishi mumkin. Ba’zi mualliflar o’zining ichki dunyosiga tamomila zid bo’lgan qahramonlarni aks ettiradilar. Bunday “obyektiv” asarlarda muallif pozitsiyasi asardagi ayrim elementlar orqali aniqlanadi: syujet, kompozitsiya, badiiy nutq.

Muallif asarning sarlavhasida, qahramonlar portretida, ularning fikrlari va his-tuyg’ularida, kompozitsiyasida, simvolizmida, peyzaj tasvirida, shuningdek to’g’ridan to’g’ri qahramonlarga munosabatida ko’rinadi. Aksariyat holatlarda muallifning syujetdan chetlashib ketishi, asarning asosiy mavzusi bilan umuman aloqasi bo’lmagan lirik chekinishlar keltirishi ham uchraydi. Aynan shu o’rinlarda muallif obrazi yaqqol ochiladi, muallifning ichki dunyosi namoyon bo’ladi.

Fransuz olimi **Valeri Mallarme** poetikasining bor mohiyati muallifni yo’q qilish, uni yozuvga almashtirishdan iborat edi. Muallif muammosi fransuz faylasufi va madaniyat nazariyachisi **Mishel Fukoning** bir qator asarlari uchun mavzu bo’lgan. U “**Muallif nima?**” nomli maqolasida “Subyekt turli vositalar orqali o’zi bilan yozayotgan narsasi o’rtasida individualligini ko’rsatadigan barcha belgilarni chalkashtirib yuboradi”, degan fikrni keltiradi.

Ushbu muammoga bag’ishlangan asarlar ichida fransuz faylasufi va adabiy tanqidchisi **Rolan Bart** qalamiga mansub “**Muallif o’limi**” tadqiqoti (1967) alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning asosiy fikri shundan iboratki, yozuvchi ijodining maqsadi va u faoliyat ko’rsatadigan ijodiy muhit matnning talqiniga qo’shilmasligi kerak, chunki bu holda uning mazmuni cheklanib qoladi. O’quvchi o’ziga taqdim etilayotgan asarni maksimal darajada erkin qabul qilishi kerak. “Muallif o’limi – postmodernistik matnshunoslikning paradigmal figurasi bo’lib, unda matn ma’no anglatish uchun kifoya”, deb yozadi olim.

Taniqli fransuz adabiyotshunoslari G. Lanson va Sharl Sent-Byov muallif nuqtai nazari borasida R. Bart bilan bahsga kirishganlar. T. D'an, L. Perroch-Muazes esa muallif, o'quvchi va matnning mantiqiy aloqasi borasidagi qarashlari bilan R. Bart farazlariga e'tiroz bildirganlar.

R. Bartning tadqiqoti o'zbek adabiyotshunosligida ham bir nechta adabiy bahslarni yuzaga keltirdi. "Sharq yulduzi" jurnalida taniqli adabiyotshunos, yozuvchi **Ulug'bek Hamdam "Muallif o'limiga siz ham ovoz berasizmi? yoxud asl ijod sog'inchi"** nomli maqolasi bilan chiqish qildi va R. Bart fikrlariga o'z munosabatini bildirdi: "Adabiyotshunoslikda muallif o'limi degan termin va bu termin tagida butun boshli qarashlar tizimi mavjud. Unda matnga individning maqsadli faoliyati emas, ongsiz tarzda amalga oshuvchi "intertekstual o'yin" mahsuli sifatida qaraladi. Bu esa badiiy ijodda individuallikni inkor etib, tabiiy ravishda "subyekt o'limi" (Fuko), "avtor o'limi" (R. Bart) konsepsiyalariga bog'lanadi. Muallif o'limini quyidagi omillar yuzaga keltiradi: taqlid, ko'chirmakashlik, atayinlik, analogiya, chalkashlik, ta'sir va taqdir, mushtarak sharoit va o'xshash ijod, ijodiy ta'sirlanish, an'ana yo'lidagi sayyor syujet, "davom ettirish" tamoyili, shaklan o'xshash, mazmunan boshqa asarlarning yozilishi, mushtarak mavzu, mimesis".

Mahkam Mahmud esa "**Taqlid, tasvir, ilhom va iste'dod**" nomli maqolasida masalaga quyidagicha yondashdi: "R. Bart "muallifning yo'qolishi" nazariyasini Suqrot va Arastudan olgan, ammo xato ko'chirgan. R. Bartning matnda "muallifning o'limi" haqidagi fikrlari asosida poetik san'at tabiatini tushunmaslik yotadi. Bart keltirgan misolda muallif "o'lmaydi", aksincha, bunday tasvirda muallif – Balzak ko'rinadi. Bu hodisani Aflotun "ijodkorning ifoda usuli" deb ataydi. Badiiy asarda qahramonlar tasvirlanib, muallif ko'rinmay tursa-da, asarning tili, ohangi, uslubida, nimalar va qanday tasvirlanayotganida muallif yorqin ko'rinib turadi".

Taniqli adabiyotshunos olim **Ibrohim G'afurov "An'ana va asllik"** nomli maqolasida juda o'rinli fikr bilan chiqdi: "Avtor o'limi" – postmodernizm tushunchasi muhokamalarda qo'llanayotgan "muallif o'limi" tushunchasi bilan barobar emas, u ko'proq ko'chirmakashlik va "ko'chirmakash" ning muallif sifatidagi o'limini nazarda

tutadi. Bunda olim avtor o'limi va muallif o'limi tushunchalarini farqlab berdi. Anglashiladiki, "Avtor o'limi" - ma'lum bir asardan nusxa olgan ko'chirmakashning o'zligini yo'qotishi, parda ortiga o'tishi. "Muallif o'limi" esa R. Bart ta'kidlagan, asar keng auditoriyaga taqdim etilgandan so'ng muallif (subyekt) ning yo'qolishiga asoslanadi.

Olima **Risolat Haydarova** "Xayrlilik istab..." maqolasida R. Bart qo'llagan "skriptor" atamasiga izoh beradi: "Skriptor postmodernistik matnshunoslikda an'anaviy muallif tushunchasi o'rniga o'ylab topilgan bo'lib, u "yozayotgan" degan ma'noni bildiradi. Skriptor o'zida kayfiyat, hissiyot yoki taassurotlarni emas, faqat cheksiz lug'atni jamlagan bo'lib, shu lug'at to'xtamay davom etaveradigan yozuvni hosil qiladi".

Adabiyotshunos **Bahodir Karimov** o'zining "Ruhiyat alifbosi" kitobida bu masalaga quyidagicha munosabat bildiradi: "R. Bart "Muallifning o'limi" nomli maqolasida badiiy asar va uning ijodkoriga yangicha yondashadi. Qadim-qadimlarda yozilgan og'zaki ijod namunalarida muallif qiyofasi ko'rinmas edi, uni qandaydir shaman yoki ijrochi-baxshi bajarar edi. Muallifning birinchi o'ringa ko'tarilishi yangi zamon mahsuli; u o'rta asr oxirlarida urf bo'la boshlagan. R. Bart fikricha, asardagi barcha tasvir, dialog, bahs va matnning boshqa elementlari muallifda emas, balki o'quvchi-kitobxonda mujassamlashadi. R. Bartning "muallif o'limi" tushunchasi undan avvalroq G'arbiy Yevropa ilm-fanida nemis olimi G. Velflinning "ismlarsiz san'at tarixi" degan qarashiga yaqin turadi".

Tamara Masharipova bu masalani keng o'rgandi va xulosalarini "G'arb nazariy manbalarida "muallif o'limi" konsepsiyasi" nomli maqolasida ilm ahliga ma'lum qildi: "Postmodernchilar badiiy adabiyotning ko'p asrlik, an'anaviy muammosi – asar muallifi bilan o'quvchilar orasidagi munosabatni tahlil qilib, subyekt, muallif, mazmun, syujet, inson, A'lo odam va hatto "Xudoning o'limi" kabi o'lim turlarini ilgari surishadi. "Subyekt" degan atamaning hozirgi talqini R. Dekartdan boshlanadi, chunki u subyektни obyektga qarama-qarshi qo'yib talqin qilgan.

Intertekstuallik konsepsiyasi Mishel Fuko tomonidan ilgari surilgan “subyektning nazariy o’limi” g’oyasi bilan chambarchas bog’liqki, buni R. Bart “muallifning o’limi”, shu bilan birga ayon va noayon iqtiboslar ichida aralashib ketgan individual matnning ham “o’limi” deb atagan. L. Muazes esa ushbu muammoni boshqalarga qaraganda ravshanroq ifodalab, mutolaa jarayonida uch narsa: muallif, matn va o’quvchi yaxlit narsaga aylanadi, degan fikrni bildirgan”.

Keng jamoatchilik va ilm ahlida qiziqish uyg’otgan bu mavzu **Zuhriddin Isomiddinovning “Parilar va qaroqchilar”, Hamidulla Boltaboyevning “Globalizm muallif o’limiga rozimi?”, Yo’ldosh Solijonovning “Haqiqiy muallif o’lmaydi”, Qurdosh Qahramonovning “Adabiyotni iste’dodlar yaratadi, iste’dodlar yangilaydi”, Umarali Normatovning “Asl ijodni anglash baxti”** nomli maqolalarida keng va atroflicha muhokama qilindi.

Xulosa sifatida aytganda, muallifning o’limi degan tushuncha g’oyalarning muallifdan auditoriya sari ko’chishi hamda matnni talqin etish, asar g’oyalarini izohlashda muallifning ahamiyati pasayishida, syujetning dunyo adabiyotlariga singib ketishi, konkret asarlarda xilma-xil manba va ta’sirlarning mavjudligida ko’rinadi. “Muallifga shuhrat keltiradigan birinchi omil – o’zini yaxshi ko’rsata olish, ya’ni o’quvchi mehrini qozonish. Muallif predmetdan ozgina bo’lsa-da, yuqori turgani ma’qul. Menimcha, har bir san’at asarida (badiiy ijodda ham) uch omil ko’zga tashlanadi:

1. Kim va qanday odam gapiryapti?
2. Qanday – yaxshi yoki yomon gapiryaptimi?
3. U nima o’ylasa, mutlaqo o’ylagani va his qilganini gapiryaptimi?

Mana shu uch omilga ko’ra, insoniyat tafakkuri yaratgan hamma badiiy asarlarga baho berish mumkin”, deganida Tolstoy haq edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hamdamov U. Muallif o’limiga siz ham ovoz berasizmi? // Sharq yulduzi. – T., 2014. 1-son.

2. Mahmudov M. Taqlid, tasvir, ilhom va iste'dod. // Sharq yulduzi. – T., 2014. 3-son.
3. G'afurov I. An'ana va asllik. // Sharq yulduzi. – T., 2014. 5-son.
4. Masharipova T. G'arb nazariy manbalarida “muallif o'limi” konsepsiyasi. // Jahon adabiyoti. – T., 2015.
5. Haydarova R. Xayrlilik istab... // Sharq yulduzi. – T., 2014. 6-son.
6. R. Bart. Muallif o'limi. // Sharq yulduzi. – T., 2015. 2-son.